

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

I Respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATEARIALLARI



1-JILD | 1-SON
2025-YIL

KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**O'ZBEKISTON TARAQQIYOT
STRATEGIYASINING USTUVOR
YO'NALISHLARI BO'YICHA
TADQIQOTLAR**

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

ISBN-978-9910-09-362-3

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 1-son (sentyabr, 2025-yil). – 78 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiylar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 18- sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar" mavzusidagi I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, strategiya, ustuvor yo'nalishlar, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, texnologik taraqqiyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Sadikov Akramjon

AK-2 ANTIPIREN KOMPOZITSIYASINING ELEKTRON SKANERLOVCHI MIKROSKOR (ESM) VA ELEMENT TAHЛИLI 5-8

Yusupova Dilfuza, Maqsudov Nabijon

YUQORI HARORAT TA'SIRIDAN MAXSUS HIMOYA KIYIMLARINI ISHLAB CHIQARISH UCHUN MATERİALLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR 9-11

TARIX FANLARI

Xusanov Ximmat

SAAD ZAGLUL BOSHCHILIGIDA MISRLIKLARNING MUSTAQILLIK UCHUN KURASHI 12-14

IQTISODIYOT FANLARI

Ikramov Axbар

СОСТОЯНИЕ И РАЗВИТИЕ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ 15-18

Baxridinova Shaxnozaxon

KICHIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA
TEXNOLOGIK INNOVATSIYALAR NING O'RNI 19-22

FALSAFA FANLARI

Raxmatov Bekzod

O'ZBEKİSTONDA FUQAROLIK JAMIYATI RIVOJLANISHIDA MILLIY G'OYA VA
MAFKURANING AHAMIYATI 23-30

FILOLOGIYA FANLARI

Ibrogimova Dilnoza

DEVONI LUGOTIT-TURK ASARIDA KASB-HUNAR LEKSİKASINING
LEKSİK-SEMANTIK TAHЛИLI 31-35

Po'latova Lobar

"YANGI DAVR" INFORMATSION DASTURI – O'ZBEKİSTON YOSHLARINING AXBOROT
MANBALARIDAN BIRI SIFATIDA 36-40

Самиева Иродахон

КОРОТКО ОБ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ 41-47

YURIDIK FANLARI

Qayumberdiyeva Dildora

O'ZBEKİSTON RESPUBLIKASI DA MEDIATSIYA INSTITUTINI TARTIBGA SOLISH BILAN
BOG'LIQ AYRIM MUAMMOLAR 48-51

PEDAGOGIKA FANLARI

Xamrakulova Kumush

QULAY TA'LIM MUHITI YARATISHDA OTA-ONALAR, MAHALLA VA
MAKTABNING IJTIMOY HAMKORLIGI 52-56

Nishanbayeva Nozimaxon

METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING LISTENING IN A DIGITAL EDUCATIONAL
ENVIRONMENT 57-61

Jololdinov Asror

KARTOGRAFIYANI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODIK YONDASHUVLAR VA ULARNING
SAMARADORLIGI 62-67

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA PISA
TOPSHIRIQLARI ROLI 68-69

TIBBIYOT FANLARI

Mirzaahmedova Muxarram, Atamuratova Aйпаршин

VЛИЯНИЕ СТРОИТЕЛЬНОГО МАТЕРИАЛА ДЕТСКОГО САДА НА ФИЗИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ
ДОШКОЛЬНИКОВ 70-72

Abdusalomov Sanjar, Abdusalomov Sunnatulla, Botirov Kamronbek

TISH EMALINING REMINERALIZATSIYA QILISHNING YANGI TEXNOLOGIYA VA
USULLARI 73-77

TARIX FANLARI

SAAD ZAGLUL BOSHCHILIGIDA MISRLIKLARNING MUSTAQILLIK UCHUN KURASHI

Xusanov Ximmat Zoir o'g'li

Sam DU Tarix fakulteti magistranti

Email: xusanovximmat@gmail.com

Tel: +998 99 008 09 47

Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya. Birinchi jahon urushidan so'ng Misr xalqi mustaqillik uchun kurashib Saad Zaglul boshchiligidagi keng namoyish harakatlarini olib borishdi. U asos solgan "Vafd" partiyasi mazkur qarshilik harakatida muhum rol o'ynaganligi hamda ushbu davrda misrliklarning birdan bir najot tashkiloti bo'lganligi yoritib o'tilgan. Shuningdek, Saad Zaglulning boshqaruv borasida qilgan ishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Saad Zaglul, "Vafd", Misr, Buyuk Britaniya, mustaqillik, Lord Kerzon, Adli posho, konstitutsiya.

EGYPTIAN STRUGGLE FOR INDEPENDENCE UNDER SAAD ZAGLUL

Khusanov Khimmat Zoir oglu

a master's student at the faculty of history of Samarkand state university

Annotation. After the First World War, the Egyptian people fought for independence and carried out large-scale demonstrations under the leadership of Saad Zaghloul. It is highlighted that the Wafd party, which he founded, played an important role in this resistance movement and was the only organization of salvation for the Egyptians during this period. It also presents Saad Zaghloul's work in governance.

Key words: Saad Zaglul, "Wafd", Egypt, UK, Independence, Lord Kerzon, Adli Pasha, Constitution.

Saad Zaglul Misr tarixida ozodlik kurashchisi sifatida chuqur iz qoldirgan. U siyosiy harakatni xalq harakatiga aylantirgan shaxs bo'lib, Misrni mustaqillikka olib borishda asosiy rol o'ynagan. 1919-yilgi mahalliy xalq vakillari tomonidan tashkil qilingan milliy ozodlik inqilobi Misr tarixida burilish nuqtasi bo'lib, mustamlakachilikka qarshi ilk ommaviy xalq harakatlaridan biri sifatida tarixda qoldi. Ushbu harakatlar orqasida Saad Zaglul va uning asos solgan "Vafd" partiyasi muhim rol o'ynadi. Saad Zaglul sobiq Usmonli davlati diplomati bo'lib, 1918-yildan xalq orasida mashhurlikka erishdi. Saad Zaglul 1918-yilda Vafd (arabcha "delegatsiya") partiyasiga asos solgan. Ushbu siyosiy harakat Misr mustaqilligini talab qilgan va xalq orasida katta qo'llab-quvvatlovga ega bo'lgan[1; p 14-15].

Buyuk Britaniyaning Zaglul va uning safdoshlarini surgun qilgani xalq noroziligiga sabab bo'ldi. Bu holat butun mamlakat bo'y lab namoyishlarga va qo'zg'onolnarga olib keldi. Mazkur voqealar Misr tarixida "1919-yilgi ingilob" deb va bu inqilob mustaqillikka olib kelgan eng muhim voqealardan biri bo'lgan. Saad Zaglul va uning tarafdozlari diplomatik faol bo'lib, Versal tinchlik konferensiyasida Misr mustaqilligini targ'ib qilib harakat qilganlar. Bu orqali u xalqaro miqyosda ham Misr masalasiga e'tibor qaratgan[2; p 8-9].

1919-yilning 9-may kuni Qohira aholisi namoyishga chiqdi. Namoyish uch kun davom etdi. «Misr-misrliklar uchun» shiori ostida o'tkazilgan ushbu tinch namoyish mustamlakachilar

tomonidan o'qqa tutildi. Bu namoyishning qo'zg'olonga aylanib ketishiga olib keldi. Qo'zg'olon katta qiyinchilik bilan bo'lsa-da, bostirildi. Ushbu qo'zg'olonda ayollar, talabalar, dehqonlar va ishchilarning ham ishtirok etishi Saad Zaglulning xalq ommasi uchun naqadar ta'siri katta ekanligini bildiradi. Aholi noroziligini pasaytirish uchun Saad Zaglul mamlakatga qaytarildi. Ayni paytda u Parij tinchlik konferensiyasiga ham yuborildi[3; ص -72]. Parij tinchlik konferensiyasida Misr vakillari ishtirok etishi Misrda milliy ongning uyg'onishi uchun katta turtki bo'lib xizmat qildi.

1919-yil noyabr oyida Milner komissiyasi mudhish vaziyatni hal qilishga urinish uchun inglizlar tomonidan Misrga yuborildi. 1920-yilda Lord Milner Buyuk Britaniya tashqi ishlar vaziri hisoblangan Lord Kerzonga o'z hisobotini taqdim etib protektoratni ittifoq shartnomasi bilan almashtirishni tavsiya qildi. Natijada Kerzon takliflarni muhokama qilish uchun Zaglul hamda Adli Posho boshchiligidagi Misr missiyasini qabul qilishga rozi bo'ldi. Missiya 1920-yil iyun oyida Londonga keldi va shartnomaga 1920-yil avgustda tuzildi. 1921-yil fevral oyida Buyuk Britaniya parlamenti kelishuvni ma'qulladi va Misrdan aniq shartnomaga tuzish uchun to'liq vakolatlarga ega bo'lgan yana bir missiyani Londonga yuborish so'raldi. Adli posho 1921-yil iyun oyida kelgan bu missiyani boshqargan[4; p 18-19]. Lekin, 1921-yilgi imperatorning navbatdagi konferensiyasida dominion delegatlari Suvaysh kanali zonasini ustidan nazoratni saqlab qolish muhimligini ta'kidlagan edilar va Kerzon o'z vazirlar mahkamasidagi hamkasblarini Adli Posho qabul qilishga tayyor bo'lgan har qanday shartlarga rozi bo'lishga ko'ndira olmadi. Missiya Misrga nafrat bilan qaytishga majbur bo'ldi. Saad Zaglul Misr mustaqilligining tan olinishiga erisholmadi. Aksincha, Misr ustidan Buyuk Britaniya protektoratini tan olindi.

Ammo Buyuk Britaniya hukmron doiralari Misrni bundan buyon eski usullar yordamida itoatda saqlab turish mumkin emasligini yaxshi tushunar edilar. 1919-yilgi ushbu qo'zg'olon Misr tarixida birinchi yirik milliy inqilob sifatida baholanadi. Endi Buyuk Britaniya «yangi»-sinalgan yo'lni tanladi. Bu yo'l Misrga davlat mustaqilligi berish, biroq turli kuchli vositalar yordamida uning amalda Buyuk Britaniyaga qaramligini saqlab qolish yo'li edi. 1921-yilda Misrda ikkinchi qo'zg'olon bo'lib, yana inglizlar tomonidan bostirildi. 1919 va 1921-yillardagi xalq qo'zg'oloni ta'sirida. Britaniya 1922-yilda Misrni mustaqil deb tan oldi, shu bilan birga mamlakatda harbiy mavjudligi va iqtisodiyotga kuchli ta'sirini saqlab qoldi. 1923-yildan Misrda konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatildi, ikki palatali parlament tuzildi va konstitutsiya qabul qilindi[5; p 7-8]. Fuad I Misr shohi bo'ldi va 1917-yildan Misr va Sudan sultonini unvonini oldi. 1920-yillarda Misrda ommaviy marksistik harakatlar va kasaba uyushmalari keng tarqaldi. 1919-yilgi qo'zg'olon uyushmagan edi va mustamlakachilarga uni tezda bostirishga imkon berdi. Mag'lubiyatga qaramay, 1919-1921-yillardagi Misr qo'zg'oloni 1922-yil 28-fevralda Misr ustidan o'z protektoratidan voz kechishga va uning mustaqilligini rasman tan olishga majbur bo'lgan Buyuk Britaniya hukumati siyosatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Saad Zaglul ko'plab ziyorolar, adiblar, jurnalistlar va talabalar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Bu guruhlar u orqali mustamlakachilikka qarshi fikrlarni tarqatishgan. Saad Zaglul islomiy yetakchilar va madaniy arboblar bilan ham hamkorlik qilgan. Ularning yordamida xalq orasida milliy rujni kuchaytirishga intilgan. U o'zining siyosiy harakatlari bilan dehqonlar va oddiy xalq orasida ham ko'p tarafdarlar yig'a oldi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. David F. The wafd party of Egypt 1936-1945. Beirut. 1965.
2. Amr Abdalla and Yasmine Arafa. Egypt: Nonviolent Resistance in the Rise of a Nation-State, 1805-1922. London. 2011.
3. "منکرات سعد زغلول" د. عبد العظیم رمضان. ۱۹۸۷.
4. MAJ Brian, S. Olson, U.S. Army. Withdrawal from Empire: Britain's Decolonization of Egypt, Aden, and Kenya in the Mid-Twentieth Century. London. 2008.
5. Turgay MURAT. Wafd Party In The Egypt Politics From The Foundation Until The End Of The Second World War. Elazığ. 2013.

O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TADQIQOTLAR

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-jild, 1-son (sentyabr, 2025-yil). – 78 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiylar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 18- sentyabr

ISBN-978-9910-09-362-3

Barcha huqular himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil.

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.